

О‘QUVCHILARDA OG‘ZAKI VA YOZMA NUTQ KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Boltayeva Nozima Mamayoqub qizi,

ToshDO‘TAU OTAT fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ona tili darslariga qo‘yiladigan asosiy talab o‘quvchilarning og‘zaki va yozma savodxonligini oshirish, to‘g‘ri, ravon, ta’sirli va mazmundor so‘zlash va yozishga o‘rgatishdan iborat. Maqolada shu mazmundagi, ya’ni o‘quvchilarning nutqiga qo‘yiladigan talablar, og‘zaki va yozma nutqni shakllantirish usullari va maktabda o‘qituvchi tomonidan bajarilishi lozim bo‘lgan ishlar yuzasidan takliflar va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Og‘zaki nutq, yozma nutq, savodxonlik, nutq sharoiti, adabiiy talaffuz, mazmun.

Abstract. The main requirement for native language lessons is to improve students' oral and written literacy, to teach them to speak and write correctly, fluently, effectively and meaningfully. The article provides suggestions and recommendations in this regard, namely, the requirements for students' speech and the work that should be done by the teacher at school.

Keywords: Oral speech, written speech, literacy, speech conditions, literary pronunciation, content.

Аннотация: Основным требованием к урокам родного языка является повышение устной и письменной грамотности учащихся, а также обучение их грамотной, беглой, эффективной и осмысленной речи и письму. В статье даются предложения и рекомендации по данной теме, а именно требования к речи учащихся и работа, которую следует проводить учителям в школе.

Ключевые слова: Устная речь, письменная речь, грамотность, условия речи, литературное произношение, содержание

Zamonaviy maktab nafaqat bilimga ega, balki shu bilimlardan hayotda foydalanishni ham biladigan, muloqot qilishni biladigan, ichki madaniyatli, tafakkur va his qiluvchi shaxsni tayyorlashi kerak. Maqsad o'quvchining imkon qadar ko'p bilishi emas, balki u har qanday vaziyatda harakat qila olishi va muammolarni hal qila olishidir. Bunga erishish uchun orttirilgan vositalar - nutq madaniyati va muloqot madaniyati (**Chernova G.B.**).

Chiroyli so'zlashni, o'z fikrini savodli va aniq bayon etishni bilmagan o'quvchilar bilimlarni muvaffaqiyat bilan o'zlashtira olmaydi. Har bir insonning nutqi chiroyli, mukammal, talaffuzi aniq va ravon bo'lsa, fikrlash doirasi keng, idrok qilishi teran bo'ladi. Nutq orqali odamzot o'zining ichki hissiyotlarini bayon qiladi, bu esa hamma insonlarda bir xil tuzilgan yoki to'la shakllangan bo'lavermaydi.

Nutq — bu insonning o'z fikrini ifoda etishi, boshqalar bilan aloqa o'rnatishi va jamiyatda yashashga moslashishi uchun zarur bo'lgan eng muhim vosita. Og'zaki nutq odatdagi so'zlashuv nutqi bo'lib, bu nutq ko'proq ohang va turli imlo-ishoralarga aloqadordir. Unda murakkab grammatik qurilmalar qo'shma gaplar deyarli qo'llanmaydi. Yozma nutqni tuzish esa murakkab jarayon bo'lib, u o'quvchidan grammatik va mazmun jihatidan to'g'ri jumla qurishni, har bir so'zni o'z o'rinida to'g'ri qo'llashni, imlo va tinish belgilariga rioya qilishni talab etadi. Avvalo, shuni qayd qilish lozimki, maktabda o'qitiladigan barcha o'quv fanlari o'quvchi nutqi ustida ishlashga qaratilgan bo'ladi. Ona tili fani esa bular orasida eng asosiy va muhim sanaladi. O'quvchining bilimi, dunyoqarashi rivojlana borgan sari, uning nutqi va tafakkuri ham muttasil o'sib boradi. Ravon, ixcham, ta'sirli nutq tinglovchiga huzur bag'ishlaydi. Maktabning asosiy vazifalaridan biri o'z o'quvchilarini ana shunday so'zlashga o'rgatishdir. Maktab o'qituvchilarining, birinchi navbatda, ona tili o'qituvchisining vazifasi o'quvchilar nutqidagi nuqsonlarni oldini olib, nutqini sheva, parazit so'zlar ta'siridan tozalash va adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda

so'zlashga o'rgatishdir. O'quvchilarda og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirish ta'lim jarayonining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu ko'nikmalar o'quvchilarning fikrini to'g'ri, ravon va aniq ifoda eta olishiga xizmat qiladi. Quyida ushbu ko'nikmalarni shakllantirishda foydalaniladigan samarali usullar keltirilgan:

Og'zaki nutq ko'nikmasini shakllantirish usullari

1. *Dialog va munozaralar tashkil etish:* O'quvchilar kichik guruhlariga bo'linib, muayyan mavzular asosida suhbat qurishadi. Bu orqali ular o'z fikrlarini erkin bayon qilishga o'rganadilar. Munozarali darslar esa mantiqiy fikrlash va dalil keltirish malakasini oshiradi.

2. *Savol-javob usuli:* Dars jarayonida savollar berib, o'quvchilarning javob berish ko'nikmasini rivojlantirish mumkin. Bu usul tezkor fikrlashni shakllantiradi.

3. *Rolli o'yinlar va dramatizatsiyalar:* Adabiy asarlardan sahna ko'rinishlari sahnalashtirish, hayotiy vaziyatlarni rolli o'yinlar orqali ifodalash orqali o'quvchilar ijodiy va og'zaki nutq bilan ishlashga rag'batlantiriladi.

4. *Kuzatuv va hikoya qilish:* Biror rasm, voqea yoki film asosida og'zaki hikoya tuzish topshiriqlari orqali tasviriy fikrlash va og'zaki nutq mashq qildiriladi.

5. *Audiovizual materiallardan foydalanish:* Turli videodarslar, eshittirishlar asosida tinglab tushunish, undan keyin fikr bildirish usuli orqali og'zaki ifoda kuchaytiriladi.

Yozma nutq ko'nikmasini shakllantirish usullari

1. *Matn tuzish va qayta ishlash:* reja asosida matn yozish, berilgan matnni qayta tuzish, izoh berish orqali yozma ifoda mashq qilinadi.

2. *Diktantlar:* Oddiy, ijodiy yoki tushunchali diktantlar yozdirish orqali o'quvchilarning imlo, grammatik va uslubiy bilimlari mustahkamlanadi.

3. *Tahlil va izoh yozish*: O'quvchilar adabiy asarlar yoki matnlar yuzasidan o'z fikrlarini yozma tarzda bayon qiladilar. Bu usul fikrni aniq ifodalashga yordam beradi.

4. *Mavzulashtirilgan yozuvlar*: Muayyan mavzular (ijtimoiy, madaniy, axloqiy va boshqalar) yuzasidan o'z fikrini yozish orqali mustaqil fikrlash va yozuv ko'nikmalari shakllantiriladi.

5. *Yozma ishlarni tahlil qilish va baholash*: O'quvchilar yozgan matnlarni birgalikda muhokama qilish, kamchiliklarini ko'rsatish va yaxshi ishlarni namuna sifatida ko'rsatish orqali yozma madaniyat mustahkamlanadi.

O'quvchilarning og'zaki va yozma nutq madaniyatini taraqqiy ettirish adabiyot o'qitishning sifatiga ham bog'liq. Shu bilan birga, nutq madaniyatini rivojlantirish darsda leksik mashqlar, qayta hikoyalash, bayon, insho kabi mashg'ulotlarni uyushtirib turishni ham taqazo etadi. Bu ikki turning yaxshi shakllanishi uchun asosiy talablar ham ishlab chiqilgan bo'lib, ular quyidagilarni tashkil qiladi:

1. *Nutqning nutq sharoitiga mosligi*. Nutq sharoiti deganda nutq yaratilayotgan paytda so'zlovchi va tinglovchining sharoiti tushuniladi. Masalan, so'zlovchi bitta, tinglovchi ko'p bo'lsa, so'zlovchining baland ovozda to'xtam (pauza)larga rioya qilib, fikrni izchil va bir-biriga bog'liq ravishda bayon qilishi talab etiladi. Bunday nutqning o'ziga xos ko'rinishi o'quvchining nazariy masalalarni yoritish yoki uy topshiriqlarini bajarish jarayonidagi javoblarida, ma'lum bir mavzuni sinfda, biror yig'inda ochib berishdagi nutqida o'z aksini topadi. Nutq sharoitining muhim tarkibiy qismlaridan biri so'zlovchining tinglovchilar saviyasini hisobga olishi hamdir.

2. *Nutqning mazmundorligi*. O'quvchi nutqi nutq sharoitiga mos tushsa hamda uning o'zi bilgan va xabardor bo'lgan voqea-hodisalarni og'zaki va yozma shakllarda bayon qilsagina mazmunli bo'ladi. Aniq dalillar, o'quvchining shaxsiy kuzatish yoki taassurotlari, his-tuyg'ulari asosida yuritgan fikrlari o'zgarar diqqatini o'ziga tortadi.

3. *Nutqning mantiqan to'g'ri, aniq va izchil bo'lishi*. Nutqda har bir fikr mantiqan asoslangan bo'lsagina, uning ta'sirchanligi ortadi. Bu har bir o'quvchidan narsa,

voqea-hodisaga sinchkovlik bilan qarash, ularning har biriga to'g'ri baho bera olish, shu yo'l bilan nutqni muntazam va izchil qurish, uni isbotlay bilishni talab etadi. O'quvchi fikrni bayon etayotganda bir fikrni ikkinchisi bilan mantiqan to'g'ri bog'lay olishi, mavzuga aloqador bo'lgan asosiy fikrlarni ikkinchi darajali fikrlardan farqlay bilishi, qaytarilgan takror fikrlarga yo'l qo'ymasligi kerak.

4. *Nutqning boy va rang-barang bo'lishi.* Nutqning boy va rang-barangligi, avvalo, fikrni bayon qilishda o'zbek tilining leksik imkoniyatlari: ma'nodosh, uyadosh va qarama-qarshi ma'noli so'zlardan, tasviriy ifoda va iboralardan, maqol va matallardan, ko'chma ma'noli so'zlardan, o'xshatish, sifatlash kabi badiiy til vositalaridan keng va o'rinli foydalanishda namoyon bo'ladi.

5. *Nutqning grammatik jihatdan to'g'ri qurilgan bo'lishi.* O'quvchi so'z, so'z birikmasi va gaplarni bir-biriga bog'lash, kelishik va egalik qo'shimchalarini o'rinli qo'llash, gapning ega va kesimini moslashtira bilish kabi malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi shart.

6. *Nutqning ohangdor, ta'sirli bo'lishi.* Ohang o'quvchi nutqining ta'sirchanligini oshirish vositasi sanaladi. O'quvchi har bir she'riy yoki nasriy asarni ohangdorlikka amal qilgan holda, sintagmalarga rioya qilib, mantiqiy to'g'ri qo'llab o'qishi zarur.

O'quvchilar nutqini o'stirishda quyidagi amaliy tadbirlar qo'llanadi:

1. Adabiy talaffuzni har bir darsda o'rganiladigan qoidalarga bog'lab o'rgatish;
2. Boshqa fanlarni o'qitishda ham nutq o'stirishga e'tibor berish;
3. O'quvchi nutqidagi adabiy tilga xos bo'lmagan dalillarni tushuntira bilish;
4. Fonetika o'qitishda aytilishi bilan yozilishi farq qiladigan tovushlar talaffuziga e'tibor berish;
5. Orfografik malakalarni mustahkamlashga oid darslar;
6. O'quvchilarni turli tadbirlarda va yig'inlarda chiqib so'zlashga odatlantirish;

7. She'riy va nasriy asarlardan parchalar yod oldirib borish.

Maktabda yagona orfografiya va nutq rejimi maktab ma'muriyati va o'qituvchilar jamoasi oldiga o'quvchilarning savodxonligini oshirish, ularning og'zaki va yozma nutqini o'stirish ishida faol ishtirok etish vazifasini qo'yadi. Bunda savodxonlik va nutq madaniyatini o'stirishda yagona talab amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytsak, maqolada keltirilgan barcha usullar o'quvchilarning darsda faolligini oshirish bilan birga bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yengillashtirish va mustahkamlash, nutq o'stirishga yo'naltirilgan har bir mashg'ulotni qiziqarli tashkil etishga xizmat qiladi. Jamiyatimizni erkinlashtirish g'oyasi bevosita ta'lim jarayonida o'z ifodasini topib, uni yangidan tashkil qilish va mazmunini o'zgartirish, yanada insonparvarlashtirish, ijtimoiylashtirish va demokratlashtirish asosida ta'minlanadi. Prezidentimiz **Shavkat Mirziyoyev** ta'kidlaganlaridek: “ Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham albatta bo'ladi ”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zunnunov A., Hotamov N., Esonov J., Ibrohimov A. Adabiyot o'qitish metodikasi. –Toshkent: O'qituvchi, 1992.
2. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
3. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. –Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
4. Safo Matjon. Maktabda adabiyotdan mustaqil foydalanish. -Toshkent: O'qituvchi, 1995.
5. Xayrullayev M. O'zbek pedagogik antologiyasi. -Toshkent: O'qituvchi, 1995.
6. Abdullayeva Q. Nutq o'stirish. -Toshkent: O'qituvchi, 1980.
7. Muhiddinov A. O'quv jarayonida nutq faoliyati. Toshkent: O'qituvchi, 1995.